
KONSTITUTSIYAVIY SUD SUDYALARINING VAKOLAT MUDDATI O'ZGARDI



Konstitutsiyaviy sud sudyalarining vakolat muddati o'zgardi

Prezident tomonidan imzolangan Qonun bilan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonunga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Unga ko'ra, Konstitutsiyaviy sud referendumga chiqarilayotgan masalalarning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi.

Konstitutsiyaviy sud mazkur toifadagi masalalar bo'yicha tegishli hujjatlar olingan kundan e'tiboran 15 kundan kechiktirmay qaror qabul qiladi.

Shuningdek, kiritilgan o'zgartirishga ko'ra, Konstitutsiyaviy sudning sudyalari qayta saylanish huquqisiz 10 yillik muddatga saylanadi (ilgari birinchi marta 5 yilga, ikkinchi marta 10 yilga saylangan).

Manba: O'RQ-895-son, 12.01.2024 y.

Sh.R.Abdullayev - Fuqarolik ishlari bo'yicha So'x tuman sudining raisi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-03-13 15:55:58